

AYOL O'ZLIGINI UNUTMASLIGI VA UNUTTIRMASLIGI LOZIM

Irodaxon Xudoyberdiyeva Muzaffar qizi

Yosh psixolog.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14792786>

Assalomu alaykum. Ushbu maqolani yozar ekanman, hayolimdan o'zimning to'g'ri yashashimga bo'lgan harakatlarim ko'z oldimdan o'tdi. Buni sizlarga bayon etishni lozim deb bildim, sababi umr va vaqtni doimiy ravishda o'z rivojlanishingizga sarflash bilan birga, oilangiz va farzandlaringizni ham unutmasligingiz muhimdir. Chunki ular faqat bir marta bolalikni his etadilar.

Biz 21-asrda, rivojlangan va teng huquqli jamiyatda yashamoqdamiz. Ayollar ham erkaklar kabi turli sohalarda o'sib, rivojlanmoqda. Bu rivojlanish har bir inson va kelajagimiz uchun juda muhim. Lekin har qanday yutuqning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'lishi tabiiydir. Bu qiyinchiliklar bizni sinovdan o'tkazadi, muammolarga duchor qiladi va natijada yangi imkoniyat eshiklarini ochadi. Afsuski, insoniyat bu jarayonlarda yangi imkoniyatlarning kalitini har doim ham anglay olmaydi.

Jamiyat turli e'tiqod va madaniyatdagi insonlardan tashkil topgan bo'lsa-da, uni birlashtiruvchi o'zgarmas qadriyatlar mavjud. Bu qadriyatlarning asosiy ustunlari – erkak va ayoldir.

Erkakni tariflaganda, uning yaratilishdan o'ziga xos vazifalari borligini bilamiz. Erkak hayotning kuchli va mas'uliyatli qismi bo'lib, uning jasorati, qat'iyati va mas'uliyat hissi jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Erkakning asosiy vazifasi – har tomonlama mas'uliyatni his qilish va uni ado etishdir.

Endi esa ayollik haqida. Haqiqiy ayollik – bu nafaqat tashqi go'zallik, balki ichki fazilatlarga ega bo'lishdir. Ayol qalbidagi cheksiz mehr-muhabbat har doim baxt olib keladi. Sabr-toqat esa hayotning qiyinchiliklariga bardosh berish, tafakkur qilish va oilani mustahkamlashga yordam beradi. Noziklik va nafislik ayolning tabiiy xislatlari bo'lib, oilaning ruhiy muhitini go'zal qiladi.

Ayol bu xislatlarni o'zida namoyon etsa, u hayotning har bir lahzasini go'zal qila oladi.

Ayol oilaning yuragi, bolalarining ustozidir. Uning mehrli tabassumi o'zidan keyin yorqin iz qoldiradi. Haqiqiy ayol – o'z baxtini o'zi yaratgan ayoldir.

Ayollar jamiyatda muhim o'rin egallab kelmoqda. Ular yirik muvaffaqiyatlarga erishib, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Biroq bu faoliyat ularning asl vazifalarini unutishlariga sabab bo'lmasligi kerak. Ayollarning eng oliy va yaratgandan berilgan vazifasi – onalik va oiladagi mehrni asrashdir. Agar bu vazifa ikkinchi darajaga tushib qolsa, kelajak avlod tarbiyasi va jamiyatning ma'naviy madaniyatida jiddiy muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda ayrim ayollar erkaklarning vazifalarini o'z bo'yniga olishmoqda. Ular moliyaviy mas'uliyat, oila boshqaruvi va qaror qabul qilish jarayonlarida erkaklar rolini egallab bormoqda. Buning natijasida esa erkaklar o'z vazifalarini bajarmaslik, mas'uliyatdan qochish yoki faqat o'z manfaatlarini o'ylash holatiga tushib qolmoqda. Erkak o'z erkakligini his qilmasa, harakat qilmaydi, oilaviy boshqaruvni o'z zimmasiga olmaydi va umri davomida o'z o'rnini topa olmaydi.

Ayol oilaning yuragi, lekin boshqaruvchisi emas. Oila boshqaruvi erkak zimmasida bo'lishi kerak. Ayol erkakning mas'uliyatlarini o'z bo'yniga olishga majbur bo'lsa, oiladagi muvozanat buziladi. Ayol tabiatan nozik, his-tuyg'ularga boy va ichki energiyasi bilan oila muhitini yaxshilash qobiliyatiga ega. Ammo ichki noziklik o'rniga erkaklarning qat'iyati, jasorati va mas'uliyati bilan yashashga majbur bo'lsa, u o'z ayollik hislatlarini yo'qotishi mumkin.

Shunday ekan, har bir ayol o'zligini unutmasligi va unuttirmasligi lozim.

Bugungi kunda ko'plab ayollarda tashqi go'zallik ustunlik qilmoqda, ammo ichki ayollik energiyasi va xarakteri sustlashib bormoqda. Ayolning ichki go'zalligi nafaqat o'z oilasi, balki atrofdagilarga ham xursandchilik olib keladi. Shu sababli, ayol o'z ichki energiyasini boyitib, asl mohiyatida yashashi muhimdir. Ayol erkaklikka xos vazifalarni o'z zimmasiga olmasligi, balki erkakni ushbu mas'uliyatni his qilishga undashi oiladagi ahillikni, mehrni va ayolning ayolligini saqlab qoladi.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, tarbiyasiz va mas'uliyatsiz erkaklar ko'pincha oilada ayollarning noto'g'ri yondashuvi yoki erkaklik vazifasini to'liq bajarishga imkon bermagan holatlarda shakllanadi. Ba'zi ayollar faqat o'z ishlariga yoki tashqi yutuqlarga e'tibor qaratib, erkakni oila boshqaruvida chetda qoldiradilar. Bu esa erkakni mas'uliyatsizlikka yoki oilaviy harakatdan qochishiga olib keladi.

Erkak mas'uliyatni bolaligidan oilaviy tarbiya va muhit orqali his qilishni o'rganadi. Ayol esa oilaning yuragi sifatida nafaqat farzandlarni, balki erkakni ham tarbiyalaydi.

Shu sababli ayollar oilada o'z nozikligi va dono aqli bilan erkakni kuchli, mas'uliyatli shaxsga aylantiruvchi onadir.

Ayol – bu ona, mehribon va oilaning ruhiy tayanchi. Erkak esa oilaning suyanchi, boshqaruvchisi va ta'minotchisidir. Maqolam songida sizlar uchun dildagi so'zlarimi bayon etaman.

Dildan so'zlarim

Ayollar! Sizlar kelajak poydevorlarini yaratasiz. Sizning tarbiyangiz va mehringiz jamiyatning kelajagini belgilaydi. O'z xislatlaringizni saqlang, oilangizni xotirjamlik sari yetaklang va jamiyatga baxtli hamda mas'uliyatli avlodni yetishtiring.

Muallif: Irodaxon Xudoyberdiyeva